



O'ZBEK TA'LIM TIZIMI TERMINLARINING LUG'AVIY QATLAMI

Xoliqova Mahbuba Abdimo'min qizi

Osiyo texnologiyalar universiteti magistri

xoliqovamahbuba04@gmail.com

Annotatsiya. *Har bir milliy ta'lim tizimi o'ziga xos terminologik qatlamga ega bo'lib, u jamiyatning tarixiy taraqqiyoti, madaniy aloqalari, ilmiy salohiyati hamda ijtimoiy ehtiyojlari bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbek ta'lim tizimi terminologiyasi ham ko'p asrlik tarixiy jarayon davomida shakllangan bo'lib, unda turli davrlarga xos bo'lgan arabcha, forsha, turkiy, ruscha va zamonaviy inglizcha terminlar qatlamini kuzatish mumkin. Ushbu maqolada o'zbek ta'lim tizimi terminlarining kelib chiqish manbalari, ularning lingvistik xususiyatlari, funksional ahamiyati hamda bugungi ta'lim jarayonidagi o'rni batafsil yoritiladi.*

Kalit so'zlar: termin, terminologik tizim, arabcha terminlar, fors-tojik terminlar, turkiy terminlar, o'zlashma terminlar, ta'lim leksikasi, terminologik qatlam.

Аннотация. *Каждая национальная система образования обладает собственным терминологическим слоем, который тесно связан с историческим развитием общества, культурными связями, научным потенциалом и социальными потребностями. Терминология узбекской системы образования также формировалась на протяжении многовекового исторического процесса, в рамках которого прослеживаются арабские, персидские, тюркские, русские и современные английские терминологические пласты, характерные для различных исторических периодов. В данной статье подробно рассматриваются источники происхождения терминов узбекской образовательной системы, их лингвистические особенности, функциональная значимость и роль в современном образовательном процессе.*



Ключевые слова: термин, терминологическая система, арабские термины, персидско-таджикские термины, тюркские термины, заимствованная терминология, образовательная лексика, терминологический слой.

Annotation. *Every national education system possesses its own specific terminological layer, which is closely connected with the historical development of society, cultural interactions, scientific potential, and social needs. The terminology of the Uzbek education system has also been formed throughout a centuries-long historical process, within which one can observe lexical layers originating from Arabic, Persian, Turkic, Russian, and modern English sources, each reflecting particular historical periods. This article comprehensively examines the sources of origin of Uzbek educational terminology, its linguistic characteristics, functional significance, and its role in the contemporary educational process.*

Keywords: *term, terminological system, Arabic borrowings, Persian-Tajik lexical elements, Turkic terminology, loanwords, educational vocabulary, terminological stratification.*

Terminologiya – muayyan fan yoki faoliyat sohasiga oid maxsus tushunchalarni ifodalovchi atamalar tizimidir [1]. Ta'lim terminologiyasi esa pedagogika, didaktika, metodika, psixologiya kabi fanlar bilan bir qatorda monitoring, akkreditatsiya, attestatsiya, kompetensiya, kvalifikatsiya kabi me'yoriy-huquqiy va tashkiliy tushunchalarni qamrab oladi. Mazkur terminlar ta'lim jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, normativ hujjatlarni ishlab chiqish hamda o'quv-uslubiy majmualarni yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi [2].

O'zbek ta'lim terminologiyasi tarixiy taraqqiyot jarayonida turli til manbalari asosida shakllangan bo'lib, u ko'p qatlamli, manbaviy jihatdan rang-barang terminologik tizim sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu tizimning shakllanishida diniy-ilmiy ta'lim, dunyoviy ta'lim, akademik ta'lim, kasbiy ta'lim hamda zamonaviy innovatsion ta'lim modellari muhim rol o'ynagan. Natijada ta'lim terminlari



etimologik manbasi, semantik ixtisoslashuvi va funksional qo'llanilishi jihatidan farqlanuvchi qatlamlarni hosil qilgan.

Arabiy terminlar. O'zbek ta'lim terminologiyasining eng qadimgi qatlamlaridan biri arab tilidan o'zlashgan terminlardir. Arab tilidan o'zlashgan ta'lim terminlari o'zbek ta'lim terminologiyasining asosiy va tarixan eng qadimgi manbaviy qatlamini tashkil etadi. Bu holat Markaziy Osiyoda islom madaniyatining yoyilishi, madrasalar faoliyati va diniy-ilmiy ta'lim tizimining shakllanishi bilan bog'liqdir. Jumladan: *ta'lim, tarbiya, ilm, ma'rifat, muallim, dars, saboq, maktab, madrasa, axloq, odob, fazilat, ijod, hunar, mantiq, tarbiya, nazariya, amaliyot, tahlil, tadqiqot, tafakkur* kabi terminlar bugungi kunda ham faol qo'llaniladi [4].

Mazkur terminlar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan bo'lib, zamonaviy ta'lim tizimida faol qo'llanilmoqda. *Ayniqsa, ta'lim, tarbiya, ilm, ma'rifat* kabi tushunchalar o'zbek pedagogik tafakkurining asosiy tayanch birliklari hisoblanadi.

Arabcha terminlar semantik jihatdan umumlashgan va abstrakt tushunchalarni ifodalashi bilan ajralib turadi hamda bugungi kunda ham pedagogik nutqning tayanch birliklari sifatida qo'llaniladi.

Fors-tojikcha terminlar. Fors-tojik tilidan kirib kelgan terminlar ham o'zbek ta'lim terminologiyasida muhim o'rin egallaydi. Bunday terminlar asosan tarbiyaviy va axloqiy mazmunni ifodalovchi qatlamni shakllantirgan. Ular jumlasiga *ustoz, shogird, donishmand, savod, savodxon* kabi atamalarni kiritish mumkin.

Forscha terminlar ko'proq insoniy fazilatlar, axloqiy-me'yoriy tushunchalar bilan bog'liq bo'lib, ta'lim jarayonining tarbiyaviy komponentini ifodalashda xizmat qiladi. Bugungi kunda ustoz-shogird an'anasini, axloqiy tarbiya, ma'naviy kamolot kabi birikmalarda ushbu terminlarning faol qo'llanilishi bunga yaqqol misoldir.

Turkiy qatlamga mansub terminlar. Turkiy qatlamga mansub ta'lim terminlari o'zbek tilining ichki so'z yasash imkoniyatlari asosida yuzaga kelgan bo'lib, ular milliy terminologiyaning tayanch asosini tashkil etadi. O'zbek tilining o'z qatlamiga mansub bo'lgan turkiy terminlar ta'lim tizimida alohida ahamiyatga



ega. *O'qituvchi, o'quvchi, o'qish, yozish, bilish, o'rganish, sinov, savodxonlik, bilim, bilimdonlik, baholash, ko'nikma, malaka, tushunish, yozish, tekshiruv, mashq, topshiriq* kabi terminlar milliy terminologiyaning barqaror asosini tashkil etadi³. Ushbu terminlar davlat ta'lim standartlari va o'quv hujjatlarida keng qo'llaniladi [5].

Turkiy qatlamga mansub terminlar o'zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida shakllanib, ta'lim terminologiyasining milliy asosini tashkil etadi.

Rus tilidan kirib kelgan terminlar. Rus tilidan o'zlashgan terminlar o'zbek ta'lim terminologiyasida ilmiy-pedagogik qatlamni shakllantirdi. XX asrda o'zbek ta'lim tizimi terminologiyasi rus tili orqali boyidi. Bu davrda *pedagogika, didaktika, metodika, psixologiya, leksika, attestatsiya, kvalifikatsiya, laboratoriya, seminar, kafedra, fakultet, institut, universitet, leksiya, praktikum, konspekt* kabi terminlar faol iste'molga kirdi.

Ruscha terminlar asosan oliy ta'lim tizimi, ilmiy-pedagogik faoliyat va boshqaruv jarayonlari bilan bog'liq bo'lib, ularning aksariyati bugungi kunda ham terminologik barqarorlikni saqlab qolgan.

Ingliz tilidan kirib kelayotgan zamonaviy terminlar. Globallashuv jarayoni ta'lim sohasida ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Zamonaviy bosqichda ingliz tilidan o'zlashayotgan terminlar o'zbek ta'lim terminologiyasining eng manbaviy qatlamni tashkil etmoqda. Natijada ingliz tilidan kirib kelayotgan zamonaviy terminlar soni ortib bormoqda. *Kompetensiya, modul, kredit, monitoring, reyting, standart, innovatsiya, interfaol ta'lim, onlayn ta'lim, masofaviy ta'lim, onlayn platforma, blended learning, soft skills, hard skills, assessment* kabi terminlar zamonaviy ta'lim modellarini ifodalashda qo'llanilmoqda [6]. Zamonaviy davrda ingliz tilidan o'zlashayotgan terminlar o'zbek ta'lim terminologiyasining yangi qatlamini shakllantirmoqda. Ushbu terminlar xalqaro ta'lim tajribasi bilan bog'liq holda kirib kelib, milliy terminologik tizimga moslashib bormoqda.

Mazkur terminlar yangi ta'lim modellari, kredit-modul tizimi, raqamli pedagogika va innovatsion yondashuvlarni ifodalashda muhim rol o'ynamoqda.



Shunday qilib, o'zbek ta'lim tizimi terminologiyasi ko'p qatlamli va murakkab tizim bo'lib, u arab, fors-tojik, turkiy, rus va ingliz tillari ta'sirida shakllangan. Har bir terminologik qatlam o'z davrining ijtimoiy-madaniy ehtiyojlarini aks ettiradi. Bugungi kunda ushbu terminlarning izchil va me'yoriy qo'llanilishi ta'lim sifatini oshirish, ilmiy-pedagogik tafakkurni rivojlantirish hamda milliy ta'lim tizimini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, o'zbek ta'lim terminologiyasining kelib chiqish manbalarini aniqlash terminlarning tarixiy shakllanishi, lingvistik xususiyatlari va terminologik tizimdagi o'rnini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqot o'zbek ta'lim terminlarining manbaviy tarkibini tizimli o'rganish orqali milliy terminologiyani ilmiy asosda rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Begmatov E. O'zbek tili terminologiyasi masalalari. – Toshkent: Fan, 1987. – B. 23-45.
2. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. – B. 12, 35.
3. Ismoilov I. O'zbek tilida termin yasalishi. – Toshkent: Fan, 1993. (41-60b)
4. Xudoyberganova D. Ilmiy matn va terminologiya muammolari. – Toshkent: Fan, 2018. – B.15-38.
5. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020. – B. 5-22.
6. ISO 704:2009. Terminology work – Principles and methods. – P. 1-18.
7. Nafasova V.T. Antropogidronimlar haqida ayrim mulohazalar. Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. – Xiva, 2024. – № 11/4. – B. 158-162.
8. T.Nafasov, V.Nafasova. O'zbek tili toponimlarining o'quv izohli lug'ati (maktab o'quvchilari, kollej va litsey talabalari uchun). – Toshkent, 2007.
9. Nafasova V.T. Qashqadaryo viloyati etnogidronimlari tadqiqiga doir. Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti. – Buxoro, 2025. – № 12. – B. 190-194.